

**“KITABUL MASOHIF” MUS’HAFLAR TARIXINI YORITGAN
DASTLABKI ILMIY MANBA**

Xudashkurov Xikmat Farxodovich

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent

islom institute 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abu Bakr Ibn Abu Dovud as-Sijistoniyning “Kitabul Masohif” asari Qur’on mus’haflarining jamlanish tarixi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Asarda sahabalar davrida Qur’on oyatlari qanday tartiblanganligi, Usmon ibn Affon roziyallohu anhuning rasmiy mus’hafni yaratish tashabbusi va bu boradagi sahabalar ijmosi bayon etiladi. Maqolada ushbu asarning tarixiy ishonchliligi, hadisiy dalillar bilan mustahkamlanganligi hamda Qur’on ilmlaridagi ilmiy ahamiyati yoritilgan. “Kitabul Masohif” – Qur’on matnining yozma tarixini o’rganuhi eng qadimiy manbalardan biri sifatida ko‘riladi.

Kalit so’zlar: Qur'on, mus’haflar tarixi, Ibn Abu Dovud, Kitabul-Masohif, Usmon mushafi, sahabalar ijmosi, Qur'on jamlanishi, qiroatlar, hadisiy manba, islomiy yozma meros.

Kirish: Islom tarixida Qur'on matnining jamlanishi va avlodlardan avlodlarga uzatilishi muhim ahamiyatga ega mavzulardandir. Erta davrdagi islom ulamolari Qur'on yozilma nusxalari (mus’haflari) haqida turli ma'lumotlarni yig‘ib, keyingi avlodlar uchun boy meros qoldirganlar. Ana shunday nodir manbalardan biri arab muhaddisi **Abu Bakr Ibn Abu Dovud as-Sijistoniy** qalamiga mansub “**Kitabul Masohif”** (“**Mus’haflar kitobi**”) asaridir. Ushbu asar Ibn Abu Dovudning hayoti va ilmiy faoliyatini, asarning mazmunini, ilmiy manbalari va tarixiy ahamiyatini hamda Qur'on ilmlaridagi o‘rnini ilmiy tarzda yoritishni maqsad qilgan. Avvalo, muallifning tarjimai holi va u yashagan davr haqida qisqacha to‘xtalib, so‘ngra asarning tuzilishi va asosiy boblari tahlil qilinib, undagi rivoyatlarning ishonchlilik darajasi va ulamolar tomonidan berilgan baholariga e’tibor qaratilgan.

Asosiy qism: **Abu Bakr Abdulloh Ibn Sulaymon Ibn al-Ash‘as As-Sijistoniy**, mashhur muhaddis Abu Dovudning o‘g‘li bo‘lib, islomiy manbalarda **Ibn Abu Dovud** nomi bilan tanilgan. U hijriy 230-yilda (milodiy 844-yil) Sijiston viloyatida tavallud topgan va hijriy 316-yilda (milodiy 928-yil) Bag‘dodda vafot etgan. Ibn Abu Dovuding bolalik chog‘idan otasi Abu Dovud as-Sijistoniy (Sunan Abu Dovud asari muallifi) bilan birga ilm yo‘lida safarlarda bo‘lgan. Otasi uni hadis ilmini o‘rganishi uchun **Xuroson, Eron, Iroq, Shom, Hijoz va Misr** kabi o‘sha davrning yirik ilm poytaxtlariga olib borgan. Natijada Ibn Abu Dovud ko‘plab mashhur muhaddislarning majlislarida bo‘lib, ulardan hadis va asarlarni yozib oldi. Ko‘p yillik ilm safarlaridan

so‘ng u Bag‘dod shahrida istiqomat qildi va hadis ilmi bo‘yicha ulkan obro‘ qozondi. Manbalarda u “**Iraq ahlining imomi**” darajasiga yetgani hamda umrining oxirida ko‘zi ojiz bo‘lib qolganiga qaramay, ilmiy faoliyatini davom ettirgani qayd etiladi. Ibn Abu Dovud o‘z davrining yirik muhaddislaridan sanalib, bir necha asarlar muallifi edi. Uning qalamiga mansub asarlar sirasiga “**Kitabul Masohif**”, “**Kitabul Ba’s**”, “**as-Sunan**”, “**at-Tafsir**”, “**Al-Qiroat**” hamda “**an-Nasih val Mansuh**” kabi kitoblar kiradi. Afsuski, ularning ba’zilaridan faqat nomigina yetib kelgan yoki ular bizgacha to‘liq saqlanib qolmagan. Ibn Abu Dovud ayniqsa Qur’on ilmlari va hadis ilmidagi hissasi bilan tanilgandir. Uning ilmiy mavqeini zamondoshlari yuksak baholagan Jumladan, zamonasining buyuk muhaddisi Imom Doroqutniy Ibn Abu Dovudni “siqa” ya’ni ishonchli roviy deya ta’riflagan, Shu bilan birga, boshqa ulamolar Ibn Abu Dovudning yod olish qobiliyatini yuqori baholab, hatto “**o‘g‘li otasidan ham ziyoda hofiz edi**” degan fikrlarni bildirganlar. Ibn Abu Dovud o‘z davrida keng ilmiy muhitga ega bo‘lib, hadis va Qur’on ilmlari sohasida bebaho meros qoldirgan. “**Kitobul-Maşohif**” uning eng mashhur va hozirgacha ilmiy ahamiyatini saqlab kelayotgan asarlaridan biridir.

“Kitabul Maşohif” asarining tuzilishi va manbalari: Asar Qur’on matnining yozma nusxalari va ularni jamlash tarixi haqida ilmiy manba hisoblanadi. Asar Qur’onning turli mus’haflari, ya’ni payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) zamonidan keyingi davrlarda sahobalarning, tobeinlarning va turli makonlardagi mavjud bo‘lgan Qur’on qo‘lyozma nusxalari hamda ularning xususiyatlari haqidagi rivoyatlarni qamrab oladi. Ibn Abu Dovud ushbu kitobni hijriy III asrda, islom jamiyati ichida Qur’on matni va uning turli qiroatlariga doir masalalarga qiziqish mavjud bo‘lgan bir paytda tasnif etgan. U bu asarni tasnif etishda oldingi avlodlardan kelgan og‘zaki va yozma rivoyatlarni yig‘ib, ularni mavzular bo‘yicha tartiblagan. Muallif uni ko‘plab bob (bo‘lim)larga ajratgan, har bir bob ma’lum bir mavzuga bag‘ishlanib, uning ostida shu mavzuga taalluqli bo‘lgan hadislar va rivoyatlar keltiriladi. Ibn Abu Dovud har bir rivoyatni sanad (isnod)lari bilan, ya’ni o‘zi eshitgan ustozlari silsilasi orqali keltiradi. Masalan, u muayyan rivoyatni “falon ustozimdan, u falondan, u sahobiy falondan rivoyat qiladi” tarzida batafsil zanjir bilan bayon etadi. Bunday uslub o‘sha davr hadis ilmining talablariga to‘la mos bo‘lib, har bir xabar manbasini tekshirish va uning ishonchlilagini baholash imkonini bergen. Shuningdek, muallif asarda ayrim rivoyatlar uchun bir nechta turli sanadlarni ham keltiradi, bu esa o‘quvchiga qaysi rivoyat boshqa manbalarda ham uchrashini solishtirishga imkon yaratgan. Hadislarni rivoyat qilishda ko‘proq o‘zining mudarrisalaridan eshitgan rivoyatlariga tayangan. Asarda Muhammad s.a.vning sahobalaridan rivoyat qilingan hadislar asosiy o‘rinni egallaydi. Xususan, **Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Mas’ud, Ubay ibn Ka‘b, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib** kabi buyuk sahobalarning Qur’on Karim nusxalari va ular haqidagi

rivoyatlar keltirilgan. Shuningdek, sahobalardan keyingi tobe’ inlarning Qur’on qiroati va mus’haflarga doir rivoyatlari ham o‘rin olgan.

Asarning mazmuni va Qur’on ilmlaridagi ahamiyati: “Kitabul Maşohif” asari mazmunan juda boy bo‘lib, Qur’oni kitob holiga keltirish va mus’haf ko‘rinishida tarqalishiga oid keng doiradagi masalalarni qamrab oladi. Asarda asosan Qur’oni qanday jamlanishi, vahiy kotiblari tomonidan Qur’on parchalarining yozilishi, mus’haf holiga keltirish Rasululloh s.a.v vafotlaridan so‘ng, ayniqsa Abu Bakr Siddiq xalifaligi davrida Qur’on oyatlarini bir joyga jamlab, ilk mus’hafni tuzish tarixi tafsilotlari keltiriladi, masalan, sahoba Zayd ibn Sobit rahbarligida parchalarni yig‘ish va bir mus’haf joylashtirish haqidagi mashhur voqeani Ibn Abu Dovud isnodlar bilan bayon qiladi.

Usmoniy mus’haf va turli viloyatlardagi nusxalar: Asarda keltirilgan asosiy qism Usmon ibn Affon xalifa davrida Qur’onning rasmiy nusxasini ko‘paytirib, musulmon yurtlariga tarqatish jarayonidir. Unda Usmon (r.a.)ning Qur’oni bir xil qiroatda (quraysh lahjasida) birlashtirish maqsadida qo‘shimcha nusxalar tayyorlatgani va boshqa har xil qo‘lyozma parchalarni yig‘dirib, yangi jamlangan matnga zid bo‘lgan nusxalarni yo‘q qildirgani haqida rivoyatlar mavjud. Ayniqsa, Kufada faoliyat yuritgan mashhur sahoba Abdulloh ibn Mas‘udning o‘z qo‘lyozma Qur’on nusxasini topshirishdan avvaliga norozi bo‘lgani, lekin keyinchalik Usmoniy nusxani qabul qilgani haqidagi keltiriladi. Bu holatni muallif mavzuni xolis yoritishga harakat qilib, sahobalar o‘rtasidagi dastlabki ixtilof va uning hal bo‘lishini ham qayd etganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Usmoniy mus’hafga oid boblarda Qur’onning yagona rasmiy nusxasini yaratish tashabbusi, ushbu jarayon tafsilotlari va natijalari batafsil bayon etiladi.

Sahobalarning shaxsiy mus’haflari va ularning farqlari: Asarning noyob jihatlaridan yana biri – Payg‘ambar (s.a.v.) sahobalarining shaxsiy Qur’on qo‘lyozmalaridagi farqlarni ham yoritib beradi. Masalan, yuqorida zikr etilgan Ibn Mas‘udning mus’hafida Fotiha surasi, Falaq va Nas suralari bo‘lmaganligi haqidagi rivoyat mashhur, Asarda bu kabi ma’lumotlar keltirilib, boshqa ayrim sahobalarning mus’haflaridagi tartib va suralar sonidagi farqlar ham zikr etiladi, Ubay ibn Ka‘b (r.a.)ning mus’hafida qo‘shimcha duolar yoki ba’zi suralarning tartibida farq borligi haqida xabarlar keladi, ushbu farqlar, albatta, Qur’on matnining asosiy tarkibiga emas, balki ayrim sahobalarning shaxsiy qog’oziga Payg‘ambar (s.a.v.)dan eshitgan ba’zi duolarning yozib qo‘yilganiga bog‘liq ekani keyingi ulamolar tomonidan ta’kidlangan, bu ma’lumotlar Qur’onning yozilishi qanday jarayonlardan o‘tganini, ayrim sahobalar Qur’on matniga qo‘shimcha ravishda duolarni ham yozib qo‘yanlarini, keyinchalik ijmo’ bilan Qur’on matni aniq chegaralab olinganini tushunish mumkin.

Qur’onning juzlari va bo‘limlarga taqsimlanishi: Asarda Qur’on suralari va oyatlarining tartibi, uni qanchaga bo‘lish (masalan, juz’larga ajratish yoki oyatlar

sonini sanash) borasidagi ma'lumotlar ham berilgan. Islomda Qur'oni xatm qilish qulay bo'lishi uchun uni 30 juz'ga yoki haftalik o'qishga mo'ljallab 7 bo'limga ajratish odati keyinchalik paydo bo'lgan. Ibn Abu Dovud davrida ham bu masalalar ahamiyatli bo'lganligi sabab, kitobda Qur'oni bo'limlarga ajratish haqidagi sahaba va tobe'inlardan rivoyatlar keltirilgan, qiroatlar va rasm (yozuv) masalalari, ba'zi tobe'in va qiroat ilmida imomlarning Qur'oni tilovat qilish uslublari (qiroatlari)ga oid xabarlar ham mavjud, jumladan, Xalifa Usmon mus'hafidan tashqari, ayrim sahabalar o'rgatgan qiroat farqlari zikr etiladi, Qur'onning yozuv usuli va imlosiga doir mulohazalar ham asarda o'z aksini topgan. Ma'lumki, ilk Qur'on qo'lyozmalarida arabcha harflar nuqtalarsiz va harakatlarsiz yozilgan, Ibn Abu Dovud o'z kitobida Qur'on yozuvini harakat va belgilarsiz yozish odati, keyinchalik paydo bo'lgan to'ldiruvchi belgilar haqida rivoyatlar keltirgan. Masalan, u Qur'on matnini yozishda so'zlarni bo'lish yoki birlashtirib yozish, kalimalarni imlo qoidalari masalasida sahabalarning aytgan fikrlarini bayon qiladi, bu jarayonlar Qur'on matnining yozma ko'rinishi vaqt o'tishi bilan qanday ko'rinishga kelganligini tushunishga yordam beradi.

Mus'hafga oid fiqhiy qoidalari: Asarning mazmunida diqqatga sazovor bo'lgan yana bir yo'naliш – mus'hafni hurmat qilish va undan foydalanish haqidagi islomiy qoidalari. Ibn Abu Dovud Qur'onga tegishli fiqh masalalarini ham batafsil yoritgan. Masalan, mus'hafga tahoratsiz holda tegish mumkinmi, Qur'oni pullash yoki sotib olish joizmi, mus'hafni musofirlikda olib yurish hukmi, imom namozda qo'lida mus'haf ushlab o'qishi mumkinmi, Qur'oni xatm qilishda qanday bo'lish kabi masalalar haqida sahaba va tobe'inlarning fatvo va amallarini rivoyat qiladi, bu hukmlar shariatda Qur'on kitobiga bo'lgan hurmat va unga tegishli qoidalarni ilk manbalardan o'rganishga imkon beradi.

Yuqoridagi mazmundan shunday tushunish mumkinki: "Kitabul-Maşöhif" asari Qur'onning nozil bo'lishidan to jamlanishigacha va undan keyingi qo'llanishigacha bo'lgan jarayonning turli qirralarini qamrab oladi, asar Qur'on ilmlaridagi bir necha sohani o'z ichiga oladi: Qur'oni jamlanish tarixi, qiroatlar va mus'haflar orasidagi farqlar, rasm va imlo masalalari, shuningdek Qur'on odobi va fiqhi, shuning uchun bu kitobni Qur'on ilmlarining ilk ilmiy manbalaridan biri deb atash mumkin. Asarda keltirilgan farqli rivoyatlar qanchalik xilma-xil ko'rinasin, ularning tahlili Qur'on oyatlarining asosiy mohiyati va matni ishonchli tarzda avlodlarga yetib kelganini tasdiqlaydi. Zero, ayrim mus'haflarda suralar soni yoki tartibi boshqacha bo'lgani haqidagi xabarlar Qur'on matniga yangi narsa qo'shilganini yoxud undan asosiy qismlar tushib qolganini anglatmaydi – balki bu farqlar odatda yozuv uslubi bilan bog'liq ekani bayon etilgan.

Xulosa: Abu Bakr Ibn Abu Dovud Sijistoniy va uning "Kitabul-Maşöhif" asari Qur'oni jamlanish tarixi va ilmlarini o'rganishda bebaho ahamiyatga ega. Muallifning

o‘zi mashhur hadis olimi bo‘lib, otasi Abu Dovudning ilmiy an’analarini davom ettirgan buyuk muhaddisdir, uning hayoti va ilmiy faoliyati ko‘p jihatdan hadis ilmi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, u Qur’onning jamlanishi va mus’haflar tarixi borasida ham birinchilardan bo‘lib ilmiy asar yaratdi. Asar Qur’on oyatlarining yozib olinishi, ilk mus’haflarning paydo bo‘lishi, xalifa Usmonning Qur’onni rasmiy nusxada jamlashi, sahobalarning shaxsiy qo‘lyozma nusxalari va qiroatlaridagi farqlar, shuningdek mus’hafga oid turli fiqhiy masalalarga bag‘ishlangan keng qamrovli manbadir. Asar isnod(ishonch)li rivoyatlar asosida tuzilgan bo‘lib, har bir mavzu alohida boblarda yoritilgan. Ushbu asar bizga sahobalar Qur’on matnini qanday darajada himoya qilishga harakat qilishganini va u bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlarni qanday avaylab saqlashganini ko‘rsatuvchi oynadir. Ibn Abu Dovudning ushbu ilmiy merosi o‘quvchi uchun ham, ilm ahli uchun ham katta foyda keltiradi, shuningdek, Qur’oni karimning Alloh taolo va’da qilganidek har qanday o‘zgarish va buzilishdan muhofaza etilganini bilvosita tasdiqlaydi. Bu ilmiy merosni chuqurroq o‘rganish va unga munosib baho berish kelajak avlod zimmasidagi vazifalardan biridir.

Manbalar ro‘yxati:

1. Ibn Abu Dovud, Abu Bakr Abdulloh. Kitabul Masohif. – Bayrut: Dorul-Basha’irul-Islamiyya, 2002. – 2 jild.
2. Xatib Bog’dodiy, Abu Bakr Ahmад. Tarix Bog’dod. – Bayrut: Dorul-Zarb al-Islamiy, 2002. – 14 jild.
3. Ibn Adi Jurjoniy, Abu Ahmад. al-Komil fī zu‘afā’ al-rijal. – Bayrut: Dorul-Kutub al-‘Ilmiyya, 1997. – 7 jild.
4. Hofiz Zahabiyy, Shamsiddin. Siyar A‘lām al-Nubala’. – Bayrut: Mu’assasat al-Risalah, 1982. – 25 jild.
5. Hofiz Zahabiyy, Shamsiddin. Mizan al-I‘tidal fī naqd al-rijal. – Bayrut: Dorul-Kutub al-‘Ilmiyya, 1995. – 4 jild.
6. Qozi, Yasir. An Introduction to the Sciences of the Qur’ān. – Birmingham (UK): Al-Hidaayah Publishing, 2003.
7. A’zamiy, Muhammad Muṣṭafó. The History of the Qur’anic Text from Revelation to Compilation. – Leicester: UK Islamic Academy, 2003.